



TOSHKENT VILOYATI HUDUDIY SAYLOV KOMISSIYASI

QARORI

Nurafshon shahri, Bobur ko'chasi, 1-uy

№ 36

2024-yil 15-avgust

Saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish davrida Toshkent viloyati hududiy saylov komissiyasi a'zolarining saylov okruglariga hamda hududlarga biriktirish haqida

O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 20-moddasiga hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2024-yil 27-maydagi 1330-sonli qarori bilan tasdiqlangan Hududiy saylov komissiyasi to'g'risidagi nizomga muvofiq, Toshkent viloyati hududiy saylov komissiyasi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish davrida Toshkent viloyati hududiy saylov komissiyasi a'zolarining saylov okruglariga biriktirilishi 1-ilovaga muvofiq, saylov okruglariga biriktirilgan komissiya a'zolarining vazifalari 2-ilovaga muvofiq hamda saylov komissiyasi a'zolarining tuman (shahar)larga biriktirilishi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Komissiya a'zolari o'zlari biriktirilgan saylov okruglarida:

- Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari sayloviga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishga oid qarorlar ijrosini bajarilishini nazorat qilsin;

- Tadbirlarni ijrosini o'z vaqtida bajarilishi bo'yicha komissiya majlisida axborot berib borsin;

- saylov natijalari hamda ovoz berish natijalarini aniqlash hamda yakuniy bayonlarni qabul qilishda tegishli saylov okrugi hududidagi uchastka saylov komissiyalari bilan hamkorlikda ish olib borsin.

3. Hududiy saylov komissiyasining a'zolari (O. To'lqinov, H.Odilov, D. Jumanova, S. Hamrayeva)larga xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashiga saylov o'tkazuvchi okrug saylov komissiyalari bilan saylovga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish masalalarini muvofiqlashtirib borish topshirilsin.

4. Ushbu qaror hududiy saylov komissiyasining rasmiy veb-saytida e'lon qilinsin.

5. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash Toshkent viloyati hududiy saylov komissiyasi raisining o'rinbosari D.Shaismanov zimmasiga yuklansin.

Rais



U.Tuxtayev

**TOSHKENT VILOYATI HUDUDIY SAYLOV KOMISSIYASI
A'ZOLARINI SAYLOV OKRUGLARIGA BIRIKTIRILISHI
J A D V A L I**

№	Komissiya a'zosining familiyasi va ismi	Biriktirilgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovi bo'yicha bir mandatli saylov okrugi	Biriktirilgan hududlari
1.	Xolboyeva Iroda Ma'murjon qizi	44-Toshkent viloyati saylov okrugi	<u>Nurafshon shahri, Piskent tumani Oqqo'rg'on tumani</u> xududi chegaralari, O'rta Chirchiq tumanining "Qorasuv", "Galabotir" "Burgalik", "O'rtabo'z", "Mingtepa", "Chuqurovul", "Yangiobod", "Boyovul", "Yuqoriovul", "O'rtovul", "Qaytmas", "Mayramko'l", "Olto'g'il", "Adolat", "Nomdanak", "Qoraqo'yli", "Obod", "Taraqqiyot", "Uyg'ur", "Xalqobod", "Yangiyo'l", "Aranchi", "Chegara", "Changtepa", "Qo'shdaryo", "Kuchluk", "Usmon ota", "Yoriq", "Yangilik", "Jang'aboy", "Qunduzak", "Darxan", "Rovatak", "Turkiston", "Tinchlik", "Sada-Arg'in" mahalla fuqarolar yig'inlari chegaralari,
2.	Bakirova Dilfuza Asadovna		
3.	Jumanova Dilrabo Inomitdinovna	45-Toshkent viloyati saylov okrugi	<u>Angren shahri, Ohangaron tumani, Oxangaron shahri, Olmaliq shahri</u> xududi chegaralari
4.	Hamrayeva Mashhura Fayziyevna		
5.	Xafizov Kaxramon Xakimovich	46-Toshkent viloyati saylov okrugi	<u>Bekobod shahri, Bekobod tumani, Bo'ka tumani</u> xududi chegaralari
6.	Uralova Nigora Erkinbayevna		

7	Xamrakulov Abdullajon Kadirovich	47-Toshkent viloyati saylov okrugi	<u>Chirchiq shahri, Bo'stonliq tumani xududi</u> chegaralari, Qibray tumanining "Tinchlik", "GES Qodriya", "Mustaqillik", "Bo'ston", "Istiqlol", "O'tkir", "Chinobod", "Birlik", "Soxibkor", "Shodlik", "Iftixor", "G'ofur G'ulom", "Zebuniso", "Beruniy", "Yangiobod", "Shalola", "May", "Yangi avlod", "Po'lat Qadam", "Xo'jaqo'rg'on", "Sharq", "Aduraxmon Jomiy", "Turkiston", "Ilg'or", "Uzumzor", "Darxan", "Yoshlik", "Botanika", "Oq oltin", "Uymavut", "Alisher Navoiy", "Baytqo'rg'on", "Navbahor", "Istiqbol", "Ko'prikboshi", "Nurobod" mahalla fuqarolar yig'ini chegaralari.
8	Hamraqulova Orasta Alisher qizi		
9	Mirzasaidova Zulxumor Inamovna	48-Toshkent viloyati saylov okrugi	<u>Zangiota tumani, Toshkent tumani xududi</u> chegaralari, Qibray tumanining "Yonariq", "Taraqqiy", "Madaniyat", "Qurilish", "Mehnat", "Ziyokor", "Yangihayot", "Yangiyo'l", "O'nqo'rg'on", "Yangi O'nqo'rg'on", "Obod", "Guliston", "Parvoz", "Oybek", "Farovon" mahalla fuqarolar yig'ini chegaralari.
10	Yusupov Ilyos Xodjiakbarovich		
11	Sharafova Odina Baxrom qizi	49-Toshkent viloyati saylov okrugi	<u>Parkent tumani, Yuqori Chirchiq tumani xududi</u> chegaralari, O'rta Chirchiq tumanining "Beshboy", "Guliston", "Toshloq", "O'rtasaroy", "A.Yo'lbarisov", "Ko'kmo'yin", "Mash'al", "Oqota", "Mustaqillik", "Boyqo'rg'on", "Sholikor", "O'choqli", "Saidovul-Baxt", "Bunyodkor", "Yo'ng'ichqoli", "Gulobod", "Yangi Turmush", "Kim Pen Xva", "Farovon", "Do'stlik", "Fayzobod" mahalla fuqarolar yig'ini chegaralari, Qibray tumanining "Bobur", "Bunyodkor", "Axillik", "Fayzobod", "Navro'z", "Ma'rifat", "Fidokor", "Mirzo Ulug'bek", "Boyjigit", "Yuqori yuz", "Do'rmon", "Yangi Arg'in", "Nurafshon", "Xaydarobod", "Olmazor", "Xosildor", "Qipchoq" mahalla fuqarolar yig'ini chegaralari
12	Turabov Azamat Abduxamit o'g'li		
13	Begmatov G'ulom G'ayratovich	50-Toshkent viloyati saylov okrugi	<u>Chinoz tumani, Yangiyo'l tumani, Yangiyo'l shahri</u> xududi chegaralari, <u>Quyi Chirchiq tumanining</u> "Paxtazor", "Tinchlik", "Mevazor", "Madaniyat", "Yilqichi", "Ko'shek", "Sergeli", "Surum" mahalla fuqarolar yig'ini chegaralari.
14	Xashimova Sevara Ashirmatovna		

TOSHKENT VILOYATI HUDUDIY SAYLOV KOMISSIYASINING SAYLOV OKRUGLARIGA BIRIKTIRILGAN A'ZOLARINING VAZIFALARI

1. Markaziy saylov komissiyasining 2024 yil 2 iyuldagi **“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari, xalq deputatlari viloyat, tuman va viloyati Kengashlari deputatlari saylovida ovoz berishni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 1343-sonli qarorini puxta o‘rganadi va uchastka saylov komissiyalari tomonidan bajarilishini nazorat qilib boradi.**

2. Biriktirilgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylov bo‘yicha bir mandatli saylov okrugi (bundan buyon - saylov okrugi)ning chegaralari joylashuvini o‘rganish va xaritasini tayyorlash. Unda tegishli tuman, viloyati aholisi, saylovchilar soni, okrug bo‘yicha saylovchilar soni, saylov uchastkalari soni, saylov uchastkalari Dislokatsiyasi ilova qilinadi.

3. Biriktirilgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylov bo‘yicha bir mandatli saylov okrugi hududidagi uchastka saylov komissiyalari tasdiqlanishi jarayonida xalq deputatlari tuman Kengashlari sessiyalarida ishtirok etadi.

4. USK raisi, o‘rinbosari va kotiblari uchun tashkil etiladigan o‘quv mashg‘ulotlarining sifatli tashkil qilinishini nazorat qiladi.

5. Saylov okrugi hududidagi uchastka saylov komissiyalari uchun ajratilgan binolarni talabga javob berishini o‘rganadi va HSK raisiga axborot beradi.

6. Saylov okrugi hududidagi saylov uchastkalaridagi ovoz berish xonalarini MSK 1343-son qaroriga muvofiq jihozlanishini o‘rganadi va HSK raisiga axborot beradi.

7. Saylov okrugi hududidagi saylov uchastkari uchun SK-50-moddasiga muvofiq saylov jihozlari bilan ta‘minlanganligini o‘rganadi va HSK raisiga axborot beradi.

8. Saylov okrugi hududidagi saylov uchastkalarida bo‘yicha saylovchilar ro‘yxati haqidagi ma‘lumotlarni o‘rganadi va viloyat Shtabi vakillari bilan hamkorlikda HSKda o‘ziga biriktirilgan kompyuterda saylov okrugi bo‘yicha saylov uchastkalari va saylovchilar soni haqidagi ma‘lumotlarni shakllantiradi.

9. HSK raisining topshirig‘iga asosan saylov okrugi hududidagi saylov uchastkalaridagi saylovchilar sonidan kelib chiqqan holda 0,5 foizi bilan saylov

byulletenlari taqsimotini HSK raisining o'rinbosari va kotibi bilan hamkorlikda tayyorlaydi.

10. Saylov byulletenlari MSKdan qabul qilib olingandan so'ng tegishli saylov okrugi bo'yicha:

- bir mandatli saylov okrugi bo'yicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylovga oid saylov byulletenlarini;

- yagona saylov okrugi bo'yicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati sayloviga oid saylov byulletenlarini

saylov okrugi joylashgan hududdagi tuman saylov komissiyasiga yetkazib berish rejasini ishlab chiqadi va HSK raisiga tasdiqlatadi.

Bunda, tegishli saylovga oid saylov byulletenlarini topshirilganligi haqidagi Dalolatnomalar rasmiylashtiriladi.

10.1. Bir vaqtda o'zi birlashtirilgan hududdagi tuman, viloyati saylov komissiyasiga ushbu hududda tuzilgan Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashiga saylov o'tkazuvchi okrug saylov komissiyasi raislari bilan birgalikda Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi deputati sayloviga oid saylov byulletenlarini tegishli tuman saylov komissiyasiga yetkazish rejasini ishlab chiqadi va HSK raisiga tasdiqlatadi.

Bunda saylov byulletenlarini topshirish va qabul qilish dalolatnomalari rasmiylashtirilishini nazorat qiladi.

10.2. Belgilangan muddatlarda (muddatidan oldin ovoz berishdan oldin va saylovdan oldin) saylov byulletenlari tegishli tuman saylov komissiyalariga yetkazilganidan so'ng, ushbu tuman saylov komissiyasi binosida:

- bir mandatli saylov okrugi bo'yicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylovga oid saylov byulletenlarini;

- yagona saylov okrugi bo'yicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati sayloviga oid saylov byulletenlarini

- xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashiga saylovga oid saylov byulletenlarini;

- xalq deputatlari tuman Kengashi deputati sayloviga oid saylov byulletenlarini
uchastka saylov komissiyalariga tarqatish taqsimotini ishlab chiqilishini nazorat qiladi.

Taqsimotda saylov okrugi nomi, saylov uchastkasidagi saylovchilar soni, har bir saylov turi bo'yicha beriladigan saylov byulletenlari saylovchilar soniga nisbatan 0,5 foiz miqdorda qo'shimchasi bilan berilishi va tarqatiladigan miqdori bir xil bo'lishiga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

MSKning 1343-sonli qarorida ko'rsatilgan shakllardagi dalolatnomalar asosida saylov byulletenlari saylov uchastkalariga to'g'ri tarqatilishini va rasmiylashtirilishini tashkiliy ravishda tashkil qiladi.

10.3. Saylov byulletenlari USKlarga yetkazilganidan so'ng saylov byulletenlarini topshirish dalolatnomalarini bir nusxasini HSKga olib keladi va o'ziga birlashtirilgan kompyuterga ushbu dalolatnomalardagi raqamlarni kiritadi.

11. Tegishli saylov okrugi hududida muddatidan oldin ovoz berish jarayonini tashkil qilinishi va o'tkazilishin nazorat qiladi va ovoz berganlar haqidagi ma'lumotlarni SJBAT tizimiga o'z vaqtida kiritilishiini muvofiqlashtiradi.

12. Saylovga bir kun qolganida USKlarni tayyorgarlik holatini o'rganadi.

13. Saylov kuni tegishli saylov okrugida ovoz berishni borishini nazorat qiladi. Saylovchilardan kelib tushgan murojaatlarni o'z vaqtida hal etish bo'yicha USKlarga ko'maklashadi. Shuningdek, MSK ishonch telefonidan kelib tushgan murojaatni taalluqliligiga ko'ra o'rganib o'z vaqtida javob yuborilishini tashkillashtiradi.

14. Soat 20-00dan so'ng o'ziga biriktirilgan hududdagi USKlardan ovoz berish natijalari to'g'risidagi bayonlarni AKTdan foydalangan holda qabul qilib oladi, tekshiradi va arifmetik xatolar yo'qligi, yozuvlarda xatoliklar yo'qligini aniqlaydi, imzolar qo'yilganligini tekshiradi va bayon to'g'ri to'ldirilganligiga ishonch hosil qilgach, o'sha USK raisini bayonni asl nusxalarini HSKga olib kelishi mumkinligini bildiradi.

15. USK raisi yakuniy bayonni asl nusxasini olib kelganda undan qabul qilib oladi. Raqamlarni kompyuter yordamida tekshiradi, yozuvlarni tekshiradi va qabul qilib oladi.

16. O'ziga biriktirilgan tegishli saylov okrugi va saylov turi bo'yicha komissiya a'zosi barcha USKlardan bayonlarni qabul qilib olgach, raqamlarni belgilangan jadvalda (28, 28a)umumlashtiradi va chop etadi, bayonlarni alohida yig'majildga soladi va HSK raisiga HSK bayoni loyihasini tayyorlash uchun bo'yicha ushbu ma'lumotlarni taqdim etadi.

**Toshkent viloyati hududiy saylov komissiyasi a'zolarining
tumanlarga biriktirish
JADVALI**

№	Hudud nomi	F.I.Sh	Komissiyadagi lavozimi
1.	Angren shahar	Hamrayeva Mashhura Fayziyevna	Hududiy saylov komissiyasi a'zosi
2.	Bekobod shahar	Xafizov Kaxramon Xakimovich	Hududiy saylov komissiyasi a'zosi
3.	Olmaliq shahar	Jumanova Dilrabo Inomitdinovna	Hududiy saylov komissiyasi a'zosi
4.	Oxangaron shahar	Jumanova Dilrabo Inomitdinovna	Hududiy saylov komissiyasi a'zosi
5.	Nurafshon shahar	Bakirova Dilfuza Asadovna	Hududiy saylov komissiyasi a'zosi
6.	Chirchiq shahar	Hamraqulova Orasta Alisher qizi	Hududiy saylov komissiyasi a'zosi
7.	Yangiyo'l shahar	Begmatov G'ulom G'ayratovich	Hududiy saylov komissiyasi a'zosi
8.	Bekobod tumani	Xafizov Kaxramon Xakimovich	Hududiy saylov komissiyasi a'zosi
9.	Bo'ka tumani	Uralova Nigora Erkinbayevna	Hududiy saylov komissiyasi a'zosi
10.	Bo'stonliq tumani	Sharafova Odina Baxrom qizi	Hududiy saylov komissiyasi a'zosi
11.	Qibray tumani	Xamrakulov Abdullajon Kadirovich	Hududiy saylov komissiyasi a'zosi
12.	Quy Chirchiq tumani	Xashimova Sevara Ashirmatovna	Hududiy saylov komissiyasi a'zosi
13.	Oqqo'rg'on tumani	Xashimova Sevara Ashirmatovna	Hududiy saylov komissiyasi a'zosi
14.	Ohangaron tumani	Jumanova Dilrabo Inomitdinovna	Hududiy saylov komissiyasi a'zosi
15.	Parkent tumani	Sharafova Odina Baxrom qizi	Hududiy saylov komissiyasi a'zosi
16.	Piskent tumani	Xolboyeva Iroda Ma'murjon qizi	Hududiy saylov komissiyasi a'zosi
17.	Toshkent tumani	Saydig'aniyev Saydazim Abdumalik o'g'li	Hududiy saylov komissiyasi a'zosi
18.	Zangiota tumani	Mirzasaidova Zulxumor Inamovna	Hududiy saylov komissiyasi a'zosi
19.	O'rta Chirchiq tumani	Tursunbayev Nodir Alimdjanovich	Hududiy saylov komissiyasi a'zosi
20.	Chinoz tumani	To'lqinov Otabek Toir o'g'li	Hududiy saylov komissiyasi a'zosi
21.	Yuqori Chirchiq tumani	Sharafova Odina Baxrom qizi	Hududiy saylov komissiyasi a'zosi
22.	Yangiyo'l tumani	Begmatov G'ulom G'ayratovich	Hududiy saylov komissiyasi a'zosi